

Teolingvistik Terminlarning Qo'llanilish Uslublari

Narzullayeva Dilfuza Bafoyevna¹, Ismatova Nigina Rahmatullo qizi²

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilning ishlatilish doirasi chegaralangan, lug'at tarkibida sanalgan diniy leksika haqida muhokama boradi va o'zbek tilining yangi davrda tarag'iyoti natijasida diniy leksikaning o'ziga xos xususiyatlarining namoyon bo'lishini ochib beradi.

Kalit so'zlar: din, diniy, lingvistik, diniy uslub, atama, chegaralangan qatlam.

KIRISH

Bugungi tilshunoslikda teolingvistika qizg'in bahstalab, lekin chuqur o'rganilmagan lug'at qatlami hisoblanadi. Teolingvistikaga taalluqli tushunchalar ancha keng talqin qilinadi. Konfessial terminlardan tashqari bunga aralash terminologik dinga taalluqli: falsafiy, ma'muriy, tasviriy, geografik, arxitektural va shu kabilar leksikasining muayyan qismi kiradi. Bular konfessial tilda ham qabul qilingan ijtimoiy sohadagi din bilan aralashib ketgan terminlar hisoblanadi'. Bundan tashqari, bir qator olimlar: terminlar, turli asoslar, ma'nosi, til shakli, vazifasi, intralingvistik va ekstralingvistik belgilariga ko'ra turlicha tasniflanishini qayd etishadi. Bizning fikrimizcha, termin deganda, muayyan bilim sohasi tizimida qabul qilingan maxsus tushuncha, predmet yoki voqea-hodisani anglatuvchi so'z yoki so'z birikmasi tushuniladi. Termin, odatda, bir ma'noli, konkret, qisqa, tizimli, turg'un, stilistik jihatdan neytral va o'zi mansub bo'lgan tilning barcha adabiy normalariga mos tushunchadir. Til lug'at tarkibining turli tasniflari mavjud. ijtimoiy hodisa sifatida til jamiyatning turli sohalarida keng qo'llanilar ekan, o'zi harakatlanayotgan soha leksikasini namoyon qiladi. So'z nimadir haqida ma'lumot beradi, ma'lumotni almashishga xizmat qiladi.

So'zlovchining fikrlari va hissiyotlarini o'zida aks ettiradi. A.A.Potebnyaning tasniflashiga ko'ra esa so'z orqali so'zlovchi o'z fikrlarini bayon qilmaydi, balki, tinglovchiga nisbatan o'z fikrlarini uyg'otadi.

TADQIQOTLAR

U.Y.Qo'ziyev "O'zbek tilidagi izohli lug'atlarda o'zlashma so'zlar tadqiqi" deb atalgan dissertatsion tadqiqot ishida diniy tushuncha ifodalovchi so'zlarni bir nechta mavzuiy guruhlariga bo'lib tahlil qiladi, ular: shaxsni bildiruvchi so'zlar, yo'nalish, ogimni bildiruvchi so'zlar, faoliyat va jarayonni bildiruvchi so'zlar, maxluqot, yaralmishni bildiruvchi so'zlar, narsa-buyumni bildiruvchi so'zlar, joy, darajani bildiruvchi so'zlar, diniy kategoriyalarni bildiruvchi so'zlar.

M.R.Galieva teolingvistika bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishida diniy mifologik markerlangan leksik birliklarni quyidagicha guruhlariga ajratadi: umumdiniy leksika; dinlar, konfessiyalar, ta'limotlar va aqidalar nomlari; ibodat tarzi xarakteridagi terminologiya; diniy marosimlarni nomlovchi leksikasi; umumdiniy mavhum (irreal) leksika; diniy markerlangan antroponim va toponimlar...

Umundiniy leksikani esa o'z navbatida turli xil dinga sig'inuvchilar uchun, leksik birliklarning farqiligidan muqaddas matnlar nomlari, e'tiqodsizlik va dinga qarshi tushunchalar, ko'p tillar uchun universal bo'lgan leksik birliklarni ajratadi. [1] Ular: Allohning ismlari; Allohning xususiyatlari; diniy-ma'naviy qadriyatni anglatuvchi tushunchalar; Payg'ambarlar, avliyolarning ismlari, e'tiqod ramzlari....

Bugungi kunda diniy leksikaga qayta murojaat qilishimiz zamonaviylik va o'tmish o'rtasidagi kommunikativ aloqalarning tiklanayotganligini ko'rsatadi.

¹ Buxoro Davlat Universiteti, Xorijiy tillar fakulteti, Fransuz filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi, d.b.narzullayeva@buxdu.uz

² Buxoro Davlat Universiteti, Xorijiy tillar fakulteti, 4-bosqich talabasi



Shunday qilib, dinning nima ekanligi, turlicha izohlansa-da, umuman olganda, din – ishonmoqlik tuyg'usidir. Bunday tuyg'usi bo'lmagan xalq yo'q. Chunki biror-bir xalq dinsiz, e'tiqodsiz, biror-bir narsaga ishonchsiz yashay olmaydi. Insoniyat tarixida din turli shakllarida: fetishizm, totemizm, animizm, sehrgarlik kabi ganday ko'rinishda namoyon bo'lgan bo'lmasin, u diniy dunyoqarash, diniy marosim, diniy tuyg'u va sig'inish obyektlarini o'z ichiga oladi. Dinning ijtimoiy hayotga ta'siri kuchlidir.

Din insonga yashashdan maqsad, hayot mazmuni, bu dunyo va u dunyo masalalariga o'z munosabatini bildirib turadi. U umuminsoniy axloq, me'yorlarini o'ziga singdirib, xulq-atvor qoidasiga aylantiradi. Madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatib, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish va avloddan avlodga yetkazish ishiga yordam beradi.[2] Diniy leksika yillar, asrlararo o'z mohiyatini, ahamiyatini va dolzarbligini yo'qotmaganligi, aksincha, har ganday davrda go'llanilishi omili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy hayotning barcha sohasida kishilik jamiyatida tarbiya, madaniyat va o'zaro muomalalar normasining belgilangan darajasi dunyoviy bilimlar bilan birga diniy ilmning ham o'rni o'ziga xos va inkor etib bo'lmaz zaruratdir."...til jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotida katta o'rin tutadi va ayni vaqtda inson tafakkurini rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Jamiyat esa bu borada tilning rivoji uchun asosiy ijtimoiy muhit shakllanishiga zamin yaratadi". Uzoq yillar mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy qarashlar tufayli diniy so'zlar ishlatilish doirasi chegaralangan so'zlar sirasiga kirib keldi. Teolingvistika atamasi diniy tilga xos, ya'ni "kishilar diniy axloq doirasida qo'llaydigan" leksik birliklardan iborat bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, oldin ishlatilmagan diniy yoki eskirgan leksikaning qayta qo'llanilishi tarix barobarida yo'qotilgan ijtimoiy realiyalar, xalqning madaniy qadriyatlari va ma'naviy an'alarining qayta tug'ilishidir. Bu jarayon jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy va siyosiy o'zgarishlar davri va undagi voqea-hodisalar bilan izohlanadi. Rus tilshunosligi ilmida diniy uslub tushunchasi L.P.Krisin tomonidan birinchi bo'lib ajratildi. [3] Olim "diniy-ma'rifiy uslub" terminini fanga kiritdi. "Diniy uslub" xususiyatlarini ajratib ko'rsatish o'ziga xos qiyinchilikni yuzaga keltirdi: bu nutq turining o'ziga xosliklari mavjud barcha funksional uslublarda - rasmiy uslub, so'zlashuv uslubi, ilmiy uslub, publitsistik uslub va badiiy adabiyot tilida namoyon bo'ldi.

N.B.Mechkovskaya o'z tadqiqotlarida diniy leksika tasnifini insonlarning diniy tasavvuriga muvofiq tasniflaydi. Tilshunos leksik birliklarning beshta turini ajratadi: birinchisi, Xudo(uning tarixi va xos xususiyatlarini) ifodalovchi diniy leksika; ikkinchisi, Xudoning irodasi, odamlarga nisbatan vasiyatlari va buyruqlarining tasavvurini ifodalovchi diniy leksika; uchinchisi, Xudoning tasavvuriga bog'liq inson, jamiyat va borliqni ifodalovchi leksika; to'rtinchisi, diniy-etik va diniy-huquqiy me'yorlarni ifodalovchi birliklar; beshinchisi, cherkov va dunyo munosabatlarini, madaniy tartibni, shuningdek, bu muammolarning yechimi va rivojlanishining tasavvurini ifodalovchi diniy leksika.

N.M.Uluqov o'zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasini mukammal o'rganish maqsadida bu turdagi lug'aviy birliklarni bir qator mavzuiy guruhlariga ajratadi. Ekzotik leksikani ekzotik so'zlar, ekzotik atoqli otlar va ekzotik frazeologiya kabi guruhlarda tadqiq qiladi. Muallif o'zbekcha diniy matn ekzotizmlaridan ekzotik so'zlarni arab xalqining ijtimoiy- siyosiy, milliy-madaniy hayoti va diniga oid narsa-hodisa nomlarida ko'rsatadi va ularni bir nechta kichik guruhlarda o'rganadi. O'zbekcha diniy matn ekzotizmlarining salmog'li qismini ekzotik atoqli otlar tashkil qilishini ta'kidlay turib, tilshunos olim ularni antroponimlar, teonimlar, toponimlar, zoonimlar va xrononimlarga ajratib tasniflaydi. O'zbekcha diniy matn ekzotizmlarini ikkita turga: to'liq ekzotizmlar (o'zbek tili sohiblariga tushunarsiz bo'lib, alohida izoh talab qiladigan ekzotizmlar) va noto'liq ekzotizmlar (o'zbek tiliga to'liq yoki qisman o'zlashgan va ma'nosi tushunarli bo'lgan ekzotizmlar)ga ajratadi". Muallif islom diniga mansub bo'lgan moddiy va ma'naviyatni ifodalashdan tashqari, keng ma'nodagi milliy, diniy ruh majmuyini ko'rsatuvchi bunday arab xalqlariga xos ekzotizmni alohida tadqiqot qilib o'rganish lozimligini ta'kidlab o'tadi. N.M.Ulug'ov o'zbek tilida matn ekzotizmlarining o'rganilishini nafaqat leksikologiya fani uchun, balki lingvosotsiologiya uchun ham alohida ahamiyat kasb etishini sanab o'tadi.

Ulug'ov N.M. O'zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi, Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya, ekzotizmlarning o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra o'zi



mansub bo'lgan xalq tili, tarixi, madaniyati, jo'g'rofiyasi, toponimiyasi, ijtimoiy turmushi va dinini o'rganishdagi o'rining yuqoriligini qayd etib o'tadi. U.Y.Qo'ziyev "O'zbek tilidagi izohli lug'atlarda o'zlashma so'zlar tadqiqi" deb atalgan dissertatsion tadqiqot ishida diniy tushuncha ifodalovchi so'zlarni bir nechta mavzuiy guruhlarga bo'lib tahlil qiladi, ular: shaxsni bildiruvchi so'zlar, yo'nalish, oqimni bildiruvchi so'zlar, faoliyat va jarayonni bildiruvchi so'zlar, maxluqot, yaralmishni bildiruvchi so'zlar, narsa-buyumni bildiruvchi so'zlar, joy, darajani bildiruvchi so'zlar, diniy kategoriyalarni bildiruvchi so'zlar...

"Til - din" munosabatlarini o'rganish barcha din vakillariga tegishli. O'zbekistonda Islom dini juda ko'p dindorlar tomonidan ifodalanadi. Ammo islom dini Qur'on tilini tahlil qilish va boshqa tillarga tarjima qilishni taqiqlaydi, chunki arab tilidan boshqa tildagi Qur'on endi Qur'on emas, faqat uning tarjimasi hisoblanadi. Bu fakt lingvistik tadqiqotlar imkoniyatini murakkablashtiradi, ammo shunga qaramay, Qur'onning boshqa tillarga tarjimalari mavjud va filologlar o'z tadqiqotlarini olib bormoqdalar. Masalan, X. T. Qurbonovning 2007 yilda Moskvada himoya qilingan "Chechen tilidagi diniy lug'at" nomli nomzodlik dissertatsiyasini nomlaylik. Shuningdek, tatar va boshqird olimlarining bir qancha asarlari ham saqlanib qolgan.

Islom ensiklopediyasiga nazar soladigan bo'lsak bu kitob diniy atamalarning izhlari jamlangan majmuadir. [4] Unda ko'p sonli diniy atamalar o'rin topgan bo'lib, izohlar va misollar orqali uning ma'nosi yoritib berilgan. Misol qilib aytadigan bo'lsak :

AZON (arab. azana - bildirish, e'lon qilish; sinonimi nido chiqarish) - namozga chaqirish. A. namoz uchun buyurilgan sunnat hisoblanadi. Odatda har bir masjidida muazzin bo'ladi. Uning aytgan A.i namoz vaqti kirganini bildiradi. A. baland ovoz bilan o'ziga xos ohang ila aytiladi. A. 622-623 y.larda Muhammad (sav) tomonidan belgilangan. Birinchi muazzin Bilol bo'lgan. Sunniylikda A. aytish qoidasi: ikki qo'lning bosh barmoqlarini quloqning yumshoq joyiga tekkizib, ko'rsatkich barmoqlarni quloq ichiga tiqib, shunday deyiladi: "Allohu akbar" ("Alloh -eng ulug'dir") - 4 marta; "Ashhadu al-la iloha illalloh" ("Guvohlik beramanki, Allohdan o'zga iloh yo'q") - 2 marta; "Ashhadu anna Muhammadur-rasululloh" ("Guvohlik beramanki, Muhammad Allohning payg'ambaridir") - 2 marta; "Hayya alas-solah" ("Namozga kelinglar") - 2 marta; "Hayya alal falah" ("Najotga kelinglar") - 2 marta; "Allohu akbar - Allohu akbar, La ilaha illalloh". A. hamma namoz uchun bir xilda aytiladi, lekin faqat bomdod namozi A.ida "Hayya ala falah" degandan so'ng "As-salotu xoyrum min-an-navm" ("Namoz uyqudan afzaldir") deb 2 marta qo'shib aytiladi. [5] Islomda yangi tug'ilgan chaqaloqning o'ng qulog'iga A. aytish odati ham bor. Bunda avval o'ng qulog'iga A., chap qulog'iga takbir aytiladi. Bu odat go'dakning bokira shuuriga Alloh taolo nomini muhrlash mazmunida talqin etilgan. Takbirda A. lafzlariga "hayya alal falah"dan so'ng ikki marta "qad qomati saloh" (namoz o'qishga tayyor) lafzini ziyoda qilinadi.

DOMLA - diniy maktab va madrasalarda talabalarni o'qituvchi shaxs; din va shariat peshvosi. "D." so'zi qachon iste'molga kirgani haqida biron ishonchli manba yo'q. Lekin "D." "mullo" so'zidan olinib, uning asosida sanskritcha "dodo" (ota) so'zi yotadi. Dastlab "mullo" so'zi oldiga "dodo" so'zi qo'shib "dodomullo" deyilgan, so'ng qisqartirib "domullo" ("katta mulla") bo'lgan.

XULOSA

Arab tili grammatika va adabiyot rivojida Qur'onning o'rni beqiyos. Qur'on uslubi (sajdada yozilgan qofiyali she'riy nasr) keyingi arab adabiyotiga, umuman, Sharq adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Qur'on ilmining rivojlanishi davrida aniq grammatik qoidalarga bo'lgan ehtiyoj bu sohaning rivojlanishiga turtki bo'lgan. Qur'on nafaqat arab tilida, balki islom dini tarqalgan mamlakatlar xalqlari tillarida yaratilgan asarlarda ham o'z aksini topgan. Xususan, Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi adabiyot arboblari ijodida Qur'ondan iqtibos, hikmat, hikoyat, hikmatlarni uchratish mumkin. Qur'on musulmon xalqlarining hayoti, tarixi, ilmi, adabiyoti, turmush tarzi, qonunlari, urf-odatlar va dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Narzullaeva, D. B. (2023, January). HISTORY OF THE TRANSLATION OF THE QURAN INTO FRENCH. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 116-118).
2. "Islom ensiklopediyasi" Zuhridin Husniddinov tahriri ostida Taqrizchi: Akademik Ne'matulla Ibrohimov "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti 2004
3. Narzullayeva, Dilfuza. "The Main Directions of Theo linguistic Research In Modern Linguistics." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 32.32 (2023).
4. Narzullayeva D. Theolinguistics in Modern Religious Discourse //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.
5. Narzoullaèva, Dulfouza Bafoevna. "THÉOLINGUISTIQUE-UNE TENTATIVE DE VULGARISATION DU TERME." *Innovative Development in Educational Activities* 2.6 (2023): 58-63.

